



KASB-HUNAR BILAN BOG'LIQ HOLDA YUZAGA KELGAN FRAZEOLOGIZMLAR

Xasanova Shaxzoda Abdujabbor qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti Tarjimashunoslik va xalqaro
jurnalistika

Annotatsiya. Xitoy hamda o'zbek tillari boshqa til oilalariga mansub bo'lsa-da, tilining grammatik xususiyatlari, shuningdek, frazeologizmlar borasida o'xshash jihatlari mavjud. Tillar orasida o'ziga xoslikni tahlil qilish birligining o'zgaruvchanligi jarayonida, talafuzzida, mazmun doirasida xususiyatni ochib berish maqolamizning asosi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, fe'l frazeologizmlar va iboralarning o'ziga xoslik tushunchalarining birlashtiruvchi xususiyati lingvistik obyektlarga lisoniy tuzilmaning yaxlitligi, hamda, shakl va mazmun birligi nuqtai nazaridan yondashiladi. Shuningdek, kasb-hunarga oid bo'lga frazeologizmlarni ishlatilish o'rni borasida qisman yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: fe'l frazeologizmlari, 成语chéngyǔ, 歇后语xiēhòuyǔ, 惯用语guànyòng, kasb-hunar, mehnatkash, dangasa, qat'iyatli, qat'iyatsiz.

Kasb-hunarga oid frazeologizmlarning yuzaga kelishishida asosan antonim munosabatda bo'lgan ikkita frazeologik birlik ma'nolarini anglatuvchi so'zlarni kiritish mumkin: *mehnatkash va dangasa, qat'iyatli va qat'iyatsiz.*

Frazeologik birliklar asosan inson xarakterining kimgadir yoki biror narsaga, faoliyatga, mehnatga nisbatan namoyon bo'lishi natijasida shakllanadi.

Faoliyatga, mehnatga munosabat bir qancha xarakter belgilarida namoyon bo'ladi, bulardan, avvalo, mehnatsevarlik, dangasalik, qat'iyatlilik, qat'iyatsizlik kabi sifatlarni nomlash zarur. Mehnatsevarlik - bu insonning mehnatga bo'lgan xohishi, istagi va moyilligini bildiradigan xarakterli xususiyat. Lug'atda dangasalik mehnatsevarlikning yo'qligi yoki yetishmasligi, mehnat faoliyati uchun bo'sh vaqtni afzal ko'rish deb talqin qilinadi. O'zbek va xitoy xalqi mehnatsevarlikni juda qadrlaydi, dangasalik esa ular tomonidan qoralanadi. Albatta har bir mehnatni, faoliyatni amalga oshirishda qat'iyat zarurdir. Tadqiqotimizda mehnatkash va dangasa, qat'iyat va qat'yatsizlik ma'nosini anglatuvchi frazeologik birliklar o'zbek va xitoy xalqlarining mehnatga ijobiy munosabatini, dangasalik va bekorchilikka salbiy munosabatini aks ettiruvchi frazeologik birliklarni ko'rib chiqamiz. Mehnatsevarlik va dangasa, qat'iyat va qat'yatsizlik so'zlarining ma'nolari sinonimlarini bir qanchasini ajratib ko'rsatamiz, shuningdek, ushbu ajratib ko'rsatilgan har bir frazeologik birlikning ma'lum bir biriga o'xshagan ta'sirchanlik darajasi mavjud.





O'zbek tilida *igna bilan quduq qazimoq* 劳而不怨 *láo ér bù yuàn* qattiq mehnat qilmoq, 孜孜不倦 *zīzībùjuàn* g'ayrat bilan *charchoq bilmasdan ishlamoq*, 凿壁借光 *záo bì jièguāng* qo'shnilarning *shamidan foydalanish uchun devorni o'yib o'qimoq* moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda to'xtovsiz o'qish, 埋头苦干 *máitóu kǔ gàn* boshi bilan sho'ng'ib ketmoq, 孺子牛 *rúzǐniú* bolani yetaklashga tayyor ho'kiz ya'ni *har doim mehnatga tayyor bo'lgan odam*, 老黄牛 *lǎo huángniú* keksa ho'kiz ya'ni *mehnatkash bo'lmoq*.

O'zbek tilida o'z kasbida yoki ko'p masalalarda katta mahoratga erishgan odam haqida *oltin qo'llar*, ko'p narsalarni qanday qilishni biladigan odam haqida *o'z ishining ustasi*, xitoy tilida 心灵手巧 *xīnlíng shǒuqiǎo* oltin qo'llar, 能工巧匠 *nénggōngqiǎojiàng* mohir usta.

Tirishqoqlik bilan, tirishqoqlik bilan, g'ayrat bilan *yeng shimarish barcha buloqlarni harakatga keltirmoq*, xitoy tilida 鼓足干劲 *gǔ zú gànjìng* barcha kuchlarni ishga tushirish 捋胳膊卷袖子 *lǚ gēbó juǎn xiùzi* yeng shimarmoq.

废寝忘食 *fèiqǐnwàngshí* juda qattiq mehnat qilish jonini jabborga bermoq, 马不停蹄 *mǎbùtíngtí* otning tig'ini to'xtatmasdan, tinimsiz harakat qilish.

Frazeologik birliklarining motivatsion komponentini tahlil qilib, motivatsiyaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: motivatsiya konkret-majoziy ifodaga asoslanadi: frazeologik birliklar o'z jonini ayamadan, nafas olmasdan mehnat qilish, 勤勤恳恳 *qín qínkěn kěn* diqqat bilan mehnat qilmoq, 熟能生巧 *shúnéngshēngqiǎo* bilim tajriba orqalikeladi.

Ramziy ma'noga ega frazeologik birlik komponenti tomonidan motivatsiya o'zbek va xitoy tillarida mehnatsevarlik ko'pincha hasharotlar va hayvonlarning xatti-harakatlari bilan taqqoslanadi. Asalarilar va chumolilar ijtimoiy hasharotlar bo'lib, ular insonning mehnatsevarligini anglatadi, chunki ular ertalabdan kechgacha shovqin-suron qiladilar, mehnat bilan vaqt o'tkazadilar. Bunday taqqoslash xitoycha aridek mehnatkash, chumolidek mehnatkash frazeologik birliklarda uchraydi.

勤劳的蜜蜂-闲不着 *qínláo de miǎfēng-xián bùzháo* mehnatkash asalarilaridek, 蚂蚁的腿-勤快 *Mǎyǐ de tuǐ-qínkuài* chumolidek mehnatkash. Xitoy va o'zbek tillarida hayvonot olamining ho'kiz, eshak, otning umumiy tasvirlari mavjud, masalan, o'zbek frazeologik birliklari ho'kiz kabi ishlaydi, eshak kabi ishlaydi va xitoy frazeologik





birliklari 老黄牛 *lǎo huángniú* eski ho'kiz ya'ni mehnatsevarlikni aks ettiradi. Xitoycha frazeologik birliklar 捋胳膊卷袖子 *lǚ gēbó juǎn xiùzi* yengini *shimarmoq*.

Yuqorida keltirilgan frazeologizmlarning antonimi bo'lgan dangasa frazeologik birliklarini o'zbek xitoy tillarida ko'rib chiqamiz. Dangasalik har ikki xalqda ham salbiy munosabatni keltirib chiqaradi, unga bir qator salbiy baholar beriladi. Buni har ikkala tilda ham mehnati uning hayotida muhim o'rin tutmaydigan shaxsni tavsiflovchi ko'p sonli frazeologik birliklarning mavjudligi tasdiqlaydi.

O'zbek tilida dangasalikni va hech narsa qilishni xohlamaydigan odam: *suv toshsa to'pig'iga chiqmaslik, barmog'ini ham qimirlatmaslik, olma pish og'zimga tush* xitoy tilida: 懒骨头 *lǎn gú tóu* dangasa *suyak* – dangasa odam, 游手好闲 *yóushǒuhàoxián* qo'llar bog'langan, bekorchilikka moyil, 吃老本 *chīlǎoběn* eski oziq-ovqat zahirasini yemoq ya'ni oldingi obrosidan, eski qadr-qimmatiga qarab xech narsa qilmasdan yashash, 不动一根手指 *bù dòng yī gēn shǒuzhǐ* bir barmog'ingizni ham qimirlatmaslik, 背床板 *bèi chuángbǎn* to'shakni orqasida ko'tarib yurmoq, 不务正业 *bùwùzhèngyè* arziyasini qilish yoki noto'g'ri ish qilish, 捕蚂蚁 *bǔ mǎyǐ* chumoli tutish bekorchilik bilan shug'ullanish. 坐着等天上掉馅饼 *zuòzhe děng tiānshàng diào xiàn bǐng* osmondan imkoniyat kelishini kutib o'tirish, humo qushini boshiga qo'nishini kutish. Qat'iyatlik bilann bog'liq frazeologizmlar: 处事不疑 *chǔshì bù yí* shubhasiz, 屣及剑及 *jù jí jiàn jí* tuflilar to'pga yetib olishi ya'ni ishni qoldirmasdan muntazam amalga oshirish 快刀斩乱麻 *kuàidāo zhǎn luànmá* so'zma-so'z tarjima qilganda o'tkir pichoq bilan tartibsizliklarni kesish o'zbek tilida *temirni qizig'ida bos* frazeologiyasi bilan muqobillashtirish mumkin. 毫不犹豫 *háobù yóuyù* ikkilanmaslik deb tarjima qilinishiga qaramasda bu ham *temirni qizig'ida bos* frazeologizmining yana bir sinonimidir 遇事风生 *yùshì fēng shēng* shamol kabi tezkor, 斩钉截铁 *zhǎndīngjiétiě* temirni mayda bo'laklarga bo'lmoq ya'ni qat'iyat bilan qaror qabul qilmoq. 破釜沉舟 *pòfǔchénzhōu* qozonlarni sindirib kemani cho'ktirib yubormoq biron bir maqsadni amalga oshirish uchun orqaga yurishga imkon qoldirmaslik. Bu tarixiy voqea bilan bog'liq bo'lib bir jangchi orolni bosib olish uchun hamma qozonlarini sindirib kemasini cho'ktirib yuborgan qochishga o'ziga va askarlariga imkon qoldirmagan. 义无反顾 *yìwúfǎngù* ortiga qarashga imkon bermaslik, qat'iyat bilan bajarish.





Qat'iyatsizlik bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar 拖泥帶水 *tuōnídàishuǐ* so'zma-so'z tarjima qilinsa loyga botish deb tarjima qilinadi ya'ni rug'an kuchsiz oddiy qiyinchilikni ham uddalay olmaslik. 遲疑不決 *chíyí bù jué* qat'iyatsizlik ila qaror qabul qila olmaslik, 瞻前顧后 *zhānqiángùhòu* oldinga qarab orqadan ko'z uzmaslik ya'ni qaror qabul qila olmaslik, ikkilanish, shubhalanish, 前怕狼后怕虎 *qián pà láng hòupà hǔ* so'zma-so'z tarjimada *oldinga yursa bo'rilar orqaga yursa yo'lbarlar* deya tarjima qilinadi qaror qabul qilishga qo'rqadigan, hammaning fikriga qaraydigan ikkilanadigan insonlarga nisbatdan ishlatiladi. 软耳朵 *ruǎn ěrduǒ yumshoq quloqlar* deya tarjima qilingan ushbu frazeologik birligimizning ma'nosi kim nima desa shuni qiladigan, o'zining shaxsiy fikriga ega bo'lmagan, o'zgalarning fikri qanday bo'lsa shunday yetkazadigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. 聋子耳朵 *lóngzi ěrduǒ kar quloqlar* iborasi atrofdagilarga hech qanday ishiga yordami tegmaydigan insonlar hozir zamonaviy tilda jargonda ushbu iboraning muqobili sifatida o'zidan jinnini yasab olgan(jinnini yoqib olgan) deb keltirsak mubolag'a bo'lmaydi. 传声筒 *chuánshēngtǒng* o'zgalarning so'ziga tobe bo'lmoq, kim nima desa shuni so'zlab yurmoq, o'zining shaxsiy fikriga ega bo'lmaslik, oqim bo'ylab suzish. Ushbu frazeologik birlikning sinonimi sifatida bir qancha frazeologik birliklarni keltiramiz: 矮人看场 *ǎirén kàn chǎng*, 人云亦云 *rényúnyìyún*, 随声附和 *suíshēngfùhè*, 随波逐流 *suíbōzhúliú*. Biron bir fikrga kela olmaslik, bir kunda fikrini bir necha marotaba o'zgartirish, doimiy ikkilanishbugungi gapi ertaga to'g'ri kelmaslikka doir bir qancha frazeologik birliklarni keltirib o'tamiz: 三心二意 *sānxīn'èryì*, 一心一意 *yīxīnyīyì*, 朝三暮四 *zhāosānmùsì*, 朝秦暮楚 *zhāoqín mùchǔ*, 朝更夕改 *cháo gèng xī gǎi*, 反复无常 *fǎnfù wúcháng*, 耳软心活 *ěr ruǎn xīn huó*.

Xulosa. Keltirilgan frazeologik birliklar o'zbek va xitoy tillarida ko'rib chiqildi. Har ikkala tilda ham mehnat-faoliyat natijasida vujudga keladigan shaxsni tavsiflovchi ko'p sonli frazeologik birliklar hayotimizda muhim o'rin egallaganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Степанова М.Д. Вопросы лексико-грамматического тождества. Вопросы языкознания, 1967, №2. С. 89-97.





2. Райхштейн А.Д. О семантической членимости фразеологических единиц. Сборник научных трудов МГПИИЯ. –М.: 1972. С 91-101
3. 莫言。酒国 142页
4. Xasanova S. (2021). Rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi: rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(7).
5. Xasanova S. (2022). XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA FE'L FRAZELOGIZMLARINING ANTONOMIYA HODISASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 29), 188-197.
6. Khasanova, S. A. Q. (2022). Analysis of verb phraseological units in chinese. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(5), 280-283.
7. Amir Fayzulla, Sevara Alijanova (tarjimasi) MoYan. Musallas mamlakati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. 185 b
8. 汉俄词典。上海外国语学院。北京：中科印刷有限公司印刷， 2008 年， 1118 页。
9. 万艺玲著。汉语词汇教程。–北京：北京语言文化大学出版社，2000， 149 页。

